


UMUM TA'LIM MAKtablARI “MUSIQA MADANIYATI” DARSLARINING MAZMUNI



Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'lifi kafedrasini o'qituvchisi

Himmatova Nargiza Pardayevna

Panjiyeva Nilufar Kamol qizi

“Musiqa ta'lifi va san'at” mutaxassisligi

2-kurs magistrant

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lif tizimida ham keng qamrovli yangilanishlar va ijobjiy o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lif mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko`rsatkichlarini oshirish barobarida o`qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo`llanilayotgan axborot texnologiyalari, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o`z faoliyatida, dars samaradorligini ta`minlashga tadbiq eta oladigan darajada tayyorlash (qayta tayyorlash) bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

Umumta'lif maktablarda musiqa tarbiyasining asosiy vazifasi o'quvchilarni, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash, ularga yuksak ahloqiy estetik hissiyotning oshirish, san'atga bo'lgan qobiliyatini o'stirishdan iborat. Musiqa darsi o'z –o'zidan ma'lumki, san'at darsidir. Musiqaviy tarbiya har bir boladagi musiqa qobiliyatni rivojlantirishga, bolaning har tomonlama barkamol bo'lib o'sishga katta yordam beradi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'lifda ham davlat ta'lif standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular omaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatları, maqom, shashmaqom, faoliyatida o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lif - tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta'lif standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorligi, musiqa ijrochilar (sozanda, xonandalar), katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o'rgatishni me'yorlashtiradi.

Musiqa ta'limdan davlat ta'lim standarti asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta'limning yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga voroslik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatları: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakl-lantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, musiqa o'qituvchisi, o'quvchilarda musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qizuquvchan o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish kerak.

Dasturda raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rın berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatları, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarur.

O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, musiqa darslarida turli harakatlar bilan bajariladigan o'yin elementlaridan foydalanish darsning samarali bo'lishiga yordam beradi.

O'quvchilarning uchburchak, metallofonlar, har xil shiqildoqlar va boshqa urma cholg'u asboblaridan foydalanish yo'llari yaxshi natijalar berdi. Bunday mashg'ulotlar dars mazmunini yanada boyitadi, bolalarda musiqiy qobiliyat, ijodkorlik, ijrochilik malakalarini har tomonlama rivojlanadi, bolalarning faoliyati aktivlashadi.

Har bir musiqa darsida o'qituvchi tomonidan ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar yokimli, chiroqli, ham ohang qilib ijro etilishi lozim. Chunki o'qituvchining ta'sirli ijrosi o'quvchilarni asarga qiziqtirish uchun jonli vosita xisoblanadi. Xususan, o'zbek musiqasi va milliy cholg'u asboblaridan keng foydalanish, darsning yanada jonli va qiziqarli o'tishni ta'minlaydi.

O'zbek musiqasi bilan bir qatorda qardosh va xorijiy xalqlarning musiqasini o'rganib borish, o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilarning ijodiy faolligini o'stirish uchun dars jarayonida «Men yoqtirgan kuy va qo'shiqlar», «Men sevgan kompozitor» kabi mavzularda munozarali suhbatlar baxslar uyuştirish, o'quvchilarga qiziqarli uy vazifalari berish, topishmoq, rebuslar o'ylab topish, ilg'or o'quvchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Kundan – kunga oshib borayotgan barcha tadqiqotlar so‘ngi davrlarda esa o‘zbek milliy musiqaga bo‘lgan qiziqishni, shak-shuhbasiz yuqorida aytib o‘tilgan ijodiy vazifalarni ijobiy hal qilishga yordam beradi.

Musiqiy madaniyat o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan xam tushgani yo‘k. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarları, dostonlar ijrochiligi xamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o‘zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini ko‘sib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi xam salmoqli o‘rin tutadi.

XIX-asr oxirlariga kelib o‘zbek musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o‘lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog‘liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o‘rganmok zarur bo‘ladi. Bazi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos rivojlanish davri bylganligini xam etirof etish zarur bo‘ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o‘lkamizda milliy musiqa san’atimizni ilmiy ravishda o‘rganish, folklor va etnografiya soxasidagi rivojlanishga sezilarli ta’sir etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M Xo’jageldiyeva Music as a Scinece and its peculiarities International Journal of Innovative Analyzes and Emerging Technology 2021
2. M Xo’jageldiyeva Dutar national instruments and performance methods Analytical Journal of Education and Development, 2021
3. MAHFUZA ERGASH QIZI XO’JAGELDIYEVA Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o’rnii INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION
4. Ходжагельдыева Махфузза Эргаш кызы, Машрабалиева Барно Машрабалиевна ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА ДУТАР И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ Новости образования: исследование в XXI веке
5. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qiz Panjiyeva Nilufar Kamol qizi The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools Journal of Pedagogical Inventions and Practices 2022/7/13
6. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Chorshanbeyiv Suyubek Nasriddin o’g’li, THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 2022/6/30.
7. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi, Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes European Journal of Innovation in Nonformal Education 2022/4/27

8. Khojageldiyeva Mahfuz Ergash Qizi, Chorshanbeyiv Suyunbek Nasriddin Ugli, THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI
9. Khojageldiyeva Mahfuz Ergash qizi, Pardayeva Nilufar Kamol qizi MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2022/3/28
10. Khojageldiyeva Mahfuz Ergash qizi, Sayfiddinova Sevinch Akramovna Dutar National Instruments and Performance Methods TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMIY JURNALI
11. МЭ ХОДЖАГЕЛЬДЫЕВА, БМ МАШРАБАЛИЕВА ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ ЭКОНОМИКА
12. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich AKBARSHOHNING SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBORI Новости образования: исследование в XXI веке 2022/11/1
13. Ochilov Ulug'bek Musurmonqulovich Buyuk akbarshohning yoshligi Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali 2022/6/21.